

SANOAT KORXONALARIDA SAMARALI KORPORATIV BOSHQARUV ASOSIDA RAQOBAT USTUNLIGINI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna

Namangan davlat texnika universiteti, Biznesni boshqarish fakulteti,
o‘quv ishlari bo‘yicha dekan o‘rinbosari

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishda korporativ boshqaruv tizimining tutgan o‘rni va uning samaradorlik omillari tahlil qilingan. Xususan, korxonada qaror qabul qilish jarayonlarining ochiqdigi, menejment va mulkdorlar o‘rtasidagi strategik muvozanat, ichki nazorat mexanizmlarining mustahkamligi hamda manfaatdor tomonlar bilan tizimli muloqot kabi korporativ boshqaruvning asosiy komponentlari chuqur o‘rganilgan. Shuningdek, maqolada O‘zbekiston sanoat korxonalarida ushbu boshqaruv tamoyillarini joriy etish holati baholanib, ilg‘or xorijiy tajriba asosida ularni rivojlantirish yo‘llari taklif etilgan. Tadqiqot natijalari korxonalar raqobatbardoshligini strategik boshqaruv nuqtai nazaridan mustahkamlash uchun ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: korporativ boshqaruv, sanoat korxonalari, raqobatbardoshlik, strategik boshqaruv, ichki nazorat, manfaatdor tomonlar, korxonalar samaradorligi, boshqaruv tizimi, xalqaro tajriba, innovatsion yondashuv.

Аннотация

В данной статье рассматривается роль системы корпоративного управления в повышении конкурентоспособности промышленных предприятий и анализируются ключевые факторы её эффективности. В частности, детально изучены такие компоненты, как прозрачность процессов принятия решений, стратегический баланс между менеджментом и владельцами, устойчивость внутренних механизмов контроля и системное взаимодействие с заинтересованными сторонами. Также оценивается текущее состояние внедрения этих принципов в промышленных предприятиях Узбекистана и предлагаются направления их совершенствования на основе передового зарубежного опыта. Полученные результаты могут быть использованы для разработки научно-практических рекомендаций по стратегическому укреплению конкурентных преимуществ предприятий.

Ключевые слова: корпоративное управление, промышленные предприятия, конкурентоспособность, стратегическое управление, внутренний контроль, заинтересованные стороны, эффективность предприятия, система управления, международный опыт, инновационный подход.

Abstract

This article analyzes the role of corporate governance systems in enhancing the competitiveness of industrial enterprises and examines the key factors contributing to its effectiveness. Specifically, it explores components such as transparency in decision-making processes, strategic balance between management and ownership, the robustness of internal control mechanisms, and systematic engagement with

stakeholders. The study also evaluates the current implementation status of these governance principles in industrial enterprises of Uzbekistan and proposes improvement strategies based on advanced international practices. The research findings offer scientific and practical recommendations for strengthening enterprises' competitive advantages from a strategic management perspective.

Keywords: corporate governance, industrial enterprises, competitiveness, strategic management, internal control, stakeholders, enterprise efficiency, management system, international experience, innovative approach.

KIRISH

Raqobatbardosh sanoat korxonalarini shakllantirish hozirgi zamon iqtisodiyoti uchun asosiy strategik ustuvorliklardan biri sanaladi. Xususan, globallashuv, texnologik innovatsiyalar va bozorlarning erkinlashuvi sharoitida kompaniyalarning muvaffaqiyati bevosita samarali korporativ boshqaruv tizimining mavjudligiga bog'liq bo'lmoqda [1].

Shu nuqtai nazardan, korxonalar faoliyatida boshqaruv tamoyillarini institutsional asosda joriy etish, mulkdorlar va menejerlar o'rtasidagi vakolatlar muvozanatini ta'minlash, ichki nazorat tizimlarini kuchaytirish hamda manfaatdor tomonlar bilan shaffof aloqalarni yo'lga qo'yish zarurati tobora dolzarb tus olmoqda².

Xalqaro tajribada samarali korporativ boshqaruv tizimi nafaqat kompaniyaning bozor bahosiga, balki uning uzoq muddatli raqobatbardoshlik salohiyatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi [3].

O'zbekiston sharoitida esa bu tizim hali to'liq shakllanmagan bo'lib, ayniqsa yirik sanoat korxonalarida korporativ boshqaruvning zamonaviy standartlarini joriy etish jarayonida muayyan tizimli muammolar kuzatilmoqda [4]. Bunga sabab bo'layotgan omillar — yuridik va institutsional mexanizmlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, axborot shaffofligining past darajasi hamda menejment madaniyatining yetarli darajada shakllanmaganligidir [5].

Ushbu maqolada sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda samarali korporativ boshqaruvning asosiy omillari tahlil qilinadi. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida O'zbekistonda mavjud boshqaruv amaliyoti baholanadi va strategik takliflar ilgari suriladi.

Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad — korxonalarda korporativ boshqaruvni takomillashtirish orqali bozor ustunligini shakllantirish hamda uzoq muddatli rivojlanishni ta'minlovchi mexanizmlarni aniqlashdir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Korporativ boshqaruv tizimining shakllanishi va uning korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri zamonaviy iqtisodiy adabiyotda keng muhokama qilinadigan dolzarb yo'nalishlardan biridir. Mazkur tadqiqot doirasida bir qator klassik va zamonaviy manbalar asosida mavzuning nazariy hamda amaliy asoslari tahlil qilinadi.

Korporativ boshqaruvning asosiy prinsiplarini bayon qilgan eng muhim hujjatlardan biri bu OECD tomonidan ishlab chiqilgan *Corporate Governance*

Principles hisoblanadi. Unda investorlarni himoya qilish, menejerlar va mulkdorlar oʻrtasidagi munosabatlarni tartibga solish, ichki nazorat tizimini takomillashtirish va shaffoflikni taʼminlash masalalari chuqur yoritilgan [1].

Bob Tricker tomonidan yozilgan *Corporate Governance: Principles, Policies and Practices* asarida korporativ boshqaruvning institutsional tuzilmasi, strategik boshqaruv bilan integratsiyasi, direktorlar kengashining vakolatlari va samaradorlik mezonlari ilmiy asosda tahlil etiladi [2]. Ayniqsa, Tricker boshqaruvda axloqiy va ijtimoiy masʼuliyatning oʻrnini ilgari suradi. Bu esa hozirgi global iqtisodiy sharoitda oʻz ahamiyatini yanada oshiradi.

Shleifer va Vishny tomonidan yozilgan *A Survey of Corporate Governance* nomli fundamental maqolada agentlik muammosi, investorlarni himoya qilish muammolari va korporativ boshqaruvning bozor qiymatiga taʼsiri tahlil etilgan³. Ular korxonalarni nazorat qilishdagi institutsional mexanizmlarning kuchsizligi iqtisodiy samaradorlikni pasaytirishini ilmiy asosda koʻrsatgan.

Becht, Bolton va Röell tomonidan olib borilgan tadqiqotda esa Yevropa mamlakatlaridagi korporativ boshqaruv modellarining farqlari oʻrganilib, yuridik tizim va mulkchilik tuzilmasi bilan boshqaruv samaradorligi oʻrtasidagi bogʻliqlik aniqlangan [4]. Bu yondashuv Oʻzbekiston kabi oʻtish davridagi mamlakatlar uchun bevosita ahamiyat kasb etadi.

IMF tomonidan chop etilgan “Corporate Governance and Economic Performance” nomli hisobotda korporativ boshqaruv tizimining makroiqtisodiy samaradorlikka taʼsiri, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida qanday namoyon boʻlishi haqida tavsiyalar berilgan [5]. Ushbu hisobotda institutsional barqarorlik va moliyaviy shaffoflik asosiy mezon sifatida ajratilgan.

Krugman va Obsfeldning xalqaro iqtisodiyotga oid tadqiqotlarida korporativ boshqaruv orqali raqobatbardoshlikni oshirishda tashqi iqtisodiy muhit, tashqi investitsiyalar va korporativ standartlar mosligini taʼminlashning ahamiyati koʻrsatib oʻtilgan [6]. Bu esa eksportga yoʻnaltirilgan sanoat korxonalarini uchun alohida dolzarb masaladir.

Qayd etish joizki, Oʻzbekistonda ham korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish boʻyicha qator davlat hujjatlari qabul qilingan. Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyul PQ–6019-son “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi Qarori¹ orqali davlat ishtirokidagi korxonalarda korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish choralari belgilangan boʻlib, u korxonalarda hisobdorlik, samaradorlik va ochiqlikni oshirishga qaratilgan [7].

Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasini qamrab olgan Abdullayev va Yusupovning izlanishlarida korporativ boshqaruvning regionlar kesimidagi farqlari, sanoat klasterlarida boshqaruv strategiyalarining oʻzgarishi tahlil qilingan [8]. Bu

¹ Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyul PQ–6019-son “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi qarori <https://www.lex.uz/ru/docs/-4887654>

ishlanma, ayniqsa, O‘zbekistonda tarmoq doirasida ixtisoslashgan korxonalar uchun dolzarbdir.

Sharqiy Osiyo davlatlarida (xususan, Janubiy Koreya va Yaponiya) korporativ boshqaruvning yutuqlari va muammolari D.H. Lee tomonidan tahlil qilingan bo‘lib, u ilg‘or menejment madaniyatining raqobat ustunligini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslab bergan [9].

Yakunda aytish mumkinki, zamonaviy adabiyotlarda korporativ boshqaruvga bo‘lgan yondashuvlar ko‘p qirrali bo‘lib, ular iqtisodiy samaradorlik, institutsional islohotlar va raqobat strategiyalari bilan uzviy bog‘liqdir. Ushbu manbalar tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda bir necha ilmiy tadqiqot usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotning asosiy metodologik asosini tizimli yondashuv tashkil etdi. Bu yondashuv kichik biznes subyektlari faoliyatining barcha jihatlarini yaxlit holda tahlil qilishga imkon berdi. Bundan tashqari, tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlar qo‘llanildi: tizimli yondashuv, SWOT-tahlil, qiyosiy-statistik va ekspert baholash metodlari. Tadqiqotda Namangan viloyati statistika boshqarmasi va kichik biznes subyektlarining moliyaviy va iqtisodiy ko‘rsatkichlari hamda ekspert so‘rovlari natijalari keng qo‘llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur bo‘limda Namangan viloyati va uning tumanlarida 2020–2025-yillar oralig‘ida sanoat rivojlanishi, bandlik darajasi, korporativ boshqaruv elementlarining joriy qilinishi hamda raqobatbardoshlik indeksi kabi iqtisodiy va boshqaruv ko‘rsatkichlari atroflicha tahlil qilinadi. Viloyatdagi sanoat sektori rivojlanish tendensiyalarini baholash, bandlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlarni aniqlash orqali hududlarning iqtisodiy salohiyatini yanada chuqur tushunish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, korporativ boshqaruv mexanizmlarining amaliyotga joriy etilish darajasi hamda uning raqobatbardoshlik indeksiga ta’siri o‘rganiladi. Tahlillar natijasida hududlarning iqtisodiy rivojlanishi, boshqaruv tizimlarining samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasidagi mavjud farqlar aniqlanib, rivojlanishda duch kelinayotgan asosiy muammolar va ularni hal qilish bo‘yicha istiqbolli yo‘nalishlar belgilab olinadi. Har bir ko‘rsatkich tumanlar bo‘yicha batafsil tarzda solishtirma asosida tahlil qilinib, viloyat iqtisodiyotini strategik boshqaruv orqali yanada takomillashtirish uchun zarur ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi (1-jadval).

Namangan viloyatining barcha tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmida barqaror o‘shish kuzatilmoqda. Bunda eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahriga tegishli bo‘lib, sanoat ishlab chiqarish hajmi 2020-yildagi 5500 mlrd so‘mdan 2025-yilda 7400 mlrd so‘mga yetgan. Bu umumiy o‘shish sur’ati 34,5 foizni tashkil etadi. Namangan shahri viloyatning iqtisodiy markazi sifatida ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanganligi, yirik korxonalarining mavjudligi hamda investitsion muhitning yuqori darajasi bilan ajralib turadi.

1-jadval
Namangan viloyati tumanlarining sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	5500	5800	6100	6500	6950	7400
Chust tumani	3200	3450	3700	4000	4300	4600
Pop tumani	3000	3250	3500	3750	4050	4350
Kosonsoy tumani	2800	2950	3150	3350	3550	3750
Yangiqo‘rg‘on tumani	2600	2750	2900	3100	3300	3500

Manba: Namangan viloyati statistika boshqarmasi, 2025-yil

Chust tumani ham sezilarli darajada o‘shishni qayd etgan bo‘lib, ishlab chiqarish hajmi 3200 mlrd so‘mdan 4600 mlrd so‘mga oshgan. Bu esa 43,7 foizlik o‘shishni ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkich tuman sanoat ishlab chiqarishining barqaror rivojlanishi va sanoat korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishi bilan bog‘liq.

Pop tumani bo‘yicha ishlab chiqarish hajmi 3000 mlrd so‘mdan 4350 mlrd so‘mga yetgan bo‘lib, jami o‘shish 45 foizni tashkil etdi. Ushbu tuman iqtisodiyotida sanoat salmog‘i ortib borayotganligi va korporativ boshqaruv elementlarining joriy qilinishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirayotganini bildiradi.

Kosonsoy va Yangiqo‘rg‘on tumanlarida esa o‘shish sur‘atlari yuqoridagi hududlarga nisbatan pastroq, lekin barqaror tendensiya mavjud. Kosonsoy tumani 2800 mlrd so‘mdan 3750 mlrd so‘mgacha (34 foiz), Yangiqo‘rg‘on esa 2600 mlrd so‘mdan 3500 mlrd so‘mgacha (34,6 foiz) o‘shishni qayd etdi. Bu tumanlarda sanoat korxonalarining soni va miqyosi kichikroq bo‘lib, rivojlanish uchun qo‘shimcha investitsiyalar va korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

Namangan viloyati tumanlari sanoat ishlab chiqarish hajmining barqaror o‘shishi sanoat sektoridagi umumiy iqtisodiy o‘shishning yaxshi ko‘rsatkichidir. Lekin tumanlar o‘rtasida sezilarli farqlar mavjudligi sababli, ayniqsa Kosonsoy va Yangiqo‘rg‘on kabi tumanlarda ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi siyosat va dasturlar ishlab chiqish, shuningdek, korporativ boshqaruvni takomillashtirish orqali yanada yuqori samaradorlikka erishish zarur hisoblanadi (2-jadval).

2-jadval
Namangan viloyati tumanlari bo‘yicha bandlik darajasi (%)

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	89.5	90.2	90.9	91.5	92.1	92.6
Chust tumani	87.0	87.8	88.5	89.1	89.7	90.2
Pop tumani	85.5	86.3	87.1	87.8	88.4	89.0
Kosonsoy tumani	84.0	84.7	85.5	86.2	86.8	87.4
Yangiqo‘rg‘on tumani	82.5	83.2	84.0	84.7	85.3	85.9

Manba: Namangan viloyati bandlik bosh boshqarmasi, 2025-yil

Namangan viloyati tumanlarida 2020–2025-yillar davomida bandlik darajasi izchil o‘shish dinamikasiga ega. Xususan, eng yuqori ko‘rsatkich Namangan shahrida qayd etilgan bo‘lib, bandlik darajasi 89,5 foizdan 92,6 foizga yetgan. Bu 3,1 foizlik

mutlaq o'sishni bildiradi. Mazkur holat sanoatning intensiv rivojlanishi, yirik korxonalarining faoliyati va xizmat ko'rsatish sohasidagi ish o'rinlarining kengayishi bilan bog'liq.

Chust tumani ham yuqori natijalarga erishgan bo'lib, bandlik darajasi ko'rsatkichi 2020-yildagi 87,0 foizdan 2025-yilga kelib 90,2 foizga yetgan. Bu esa besh yillik davr ichida 3,2 foiz o'sishni anglatadi. Chust tumanida kichik va o'rta biznes subyektlarining rivojlanishi, hunarmandchilik va sanoat korxonalaridagi bandlikning ortishi bu ko'rsatkichga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Pop tumanida bandlik darajasi 85,5 foizdan 89,0 foizga oshgan bo'lib, jami 3,5 foizlik o'sish kuzatilgan. Mazkur tuman iqtisodiyotining diversifikatsiya qilinishi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va ishlab chiqarish sohalarida yangi ish o'rinlarining yaratilishi bu ko'rsatkichning yaxshilanishiga yordam bergan.

Kosonsoy tumanida bandlik darajasi 84,0 foizdan 87,4 foizga ko'tarilgan bo'lib, 3,4 foizga oshgan. Biroq bu tumanda bandlik darajasining boshqa tumanlarga nisbatan pastligi mavjud sanoat salohiyatidan yetarlicha foydalanilmayotganini va iqtisodiyotning boshqa sohalarida yangi ish o'rinlarini yaratish siyosatini faollashtirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Eng past ko'rsatkich esa Yangiqo'rg'on tumanida qayd etilgan bo'lib, bandlik darajasi 82,5 foizdan 85,9 foizga oshgan. Ushbu 3,4 foizlik o'sish ijobiy holat bo'lsa-da, boshqa hududlarga nisbatan pastroq darajada qolmoqda. Bu esa tuman iqtisodiyotida sanoatning rivojlanishini yanada jadallashtirish, ayniqsa ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish orqali yangi ish o'rinlarini ko'paytirish zarurligini bildiradi.

Namangan viloyati bo'yicha bandlik darajasining umumiy oshishi sanoatning rivojlanishi bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlangan bo'lib, ayniqsa past ko'rsatkichlarga ega tumanlarda iqtisodiy diversifikatsiya, korporativ boshqaruv va tadbirkorlik faoliyatini rag'batlantirish orqali bandlikni yanada oshirish mumkin. Hududiy bandlik siyosatida korxonalar va xizmat ko'rsatish sohasi rivojlanishining muhim strategik vazifalardan biri bo'lishi kerakligi ta'kidlanadi (3-jadval).

3-jadval

Korxonalarda joriy etilgan korporativ boshqaruv elementlari soni

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	3	4	5	6	7	8
Chust tumani	2	3	3	4	4	5
Pop tumani	2	2	3	4	4	5
Kosonsoy tumani	1	2	2	3	3	4
Yangiqo'rg'on tumani	1	1	2	2	3	4

Manba: Namangan viloyati iqtisodiy taraqqiyot boshqarmasi, korxonalar so'rovi, 2025-yil

Namangan viloyatidagi sanoat korxonalarida korporativ boshqaruv tizimlari va uning asosiy elementlarining joriy qilinishi 2020–2025-yillar oralig'ida sezilarli darajada yaxshilangan. Tahlil qilinayotgan jadvalda, ayniqsa, Namangan shahri eng yuqori ko'rsatkichlarni qayd etgan. Ushbu shaharda 2020-yilda korporativ boshqaruv

elementlari soni 3 ta bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 8 taga yetib, 5 ta yangi boshqaruv mexanizmi qo'llanilganligini bildiradi. Bu holat Namangan shahridagi korxonalarda boshqaruv madaniyati va xalqaro standartlarga muvofiq lashtirish jarayonlari faollashayotganidan dalolat beradi.

Chust tumani korxonalari ham ijobiy dinamikaga ega bo'lib, korporativ boshqaruv elementlari 2020-yildagi 2 tadan 2025-yilga kelib 5 taga yetgan. Bu tumanda sanoat korxonalarining boshqaruv tizimlaridagi rivojlanish va modernizatsiya jarayonlari boshlanganligini ko'rsatadi. Biroq Chust tumani Namangan shahridan keyin ikkinchi o'rinda turishiga qaramay, elementlarning o'sish sur'ati nisbatan pastligi tuman korxonalarida boshqaruv tizimlarini yanada rivojlantirish uchun strategik dasturlarni kengaytirishni talab qiladi.

Pop tumanida 2020–2025-yillar oralig'ida korporativ boshqaruv elementlari 2 tadan 5 taga oshgan. Mazkur natijalar tumanda boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish yo'nalishida sezilarli sa'y-harakatlar olib borilayotganini ko'rsatmoqda. Lekin Pop tumani ko'rsatkichlarining o'sish sur'ati Namangan shahri va Chust tumanlariga qaraganda biroz pastroq ekanligi kuzatilmoqda.

Kosonsoy tumanida esa boshqaruv elementlari soni 2020-yilda 1 tani tashkil etgan bo'lib, 2025-yilga kelib 4 taga yetgan. Bu natija yaxshi bo'lsa-da, boshqa tumanlarga nisbatan pastroq ko'rsatkich hisoblanadi. Korxonalarda boshqaruv samaradorligini oshirish va investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha qo'shimcha choralarni joriy etish zarur.

Eng past ko'rsatkichlar Yangiqo'rg'on tumanida qayd etilgan bo'lib, 2020-yilda mavjud bo'lgan korporativ boshqaruv elementlari soni atigi 1 tani tashkil qilgan. 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 4 taga yetgan bo'lsa-da, hududda korporativ boshqaruv tizimlari joriy etish sur'ati boshqa hududlarga nisbatan ancha past. Bu holat tumandagi korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish uchun boshqaruv mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini bildiradi.

Namangan viloyati korxonalarida korporativ boshqaruv elementlarining o'sish tendensiyasi ijobiy bo'lib, ayniqsa viloyat markazida bu jarayon juda faol kechmoqda. Ammo Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlarida korporativ boshqaruvni rivojlantirish uchun qo'shimcha sa'y-harakatlar va hududiy strategik dasturlar ishlab chiqilishi hamda ularning amalga oshirilishi talab qilinadi. Bu esa viloyatdagi umumiy iqtisodiy samaradorlik va raqobatbardoshlik darajasining oshishiga sezilarli ta'sir qiladi (4-jadval).

4-jadval

Raqobatbardoshlik indeksi (0–1 oralig'ida)

Tumanlar	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Namangan shahri	0.72	0.74	0.76	0.78	0.80	0.83
Chust tumani	0.66	0.68	0.70	0.71	0.73	0.75
Pop tumani	0.63	0.65	0.67	0.69	0.71	0.73
Kosonsoy tumani	0.60	0.62	0.64	0.66	0.68	0.70
Yangiqo'rg'on tumani	0.58	0.60	0.62	0.63	0.65	0.67

Manba: Muallif tomonidan tumanlar kesimidagi ko'rsatkichlar asosida hisoblangan

Namangan viloyati tumanlarining raqobatbardoshlik indeksi 2020–2025-yillar davomida barqaror va izchil ravishda oʻsib borganligi kuzatilmoqda. Raqobatbardoshlik indeksining eng yuqori koʻrsatkichi Namangan shahrida qayd etilgan boʻlib, 2020-yilda ushbu koʻrsatkich 0,72 ni tashkil qilgan boʻlsa, 2025-yilda 0,83 ga yetgan. Ushbu 0,11 ballik mutlaq oʻsish korporativ boshqaruv tizimlarining samarali ishlashi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va yangi investitsion loyihalarning amalga oshirilishi bilan izohlanadi. Namangan shahri viloyat markazi sifatida iqtisodiy resurslarning konsentratsiyasi va yuqori darajadagi boshqaruv muhitiga ega ekanligini koʻrsatmoqda.

Chust tumani boʻyicha raqobatbardoshlik indeksi 2020-yilda 0,66 dan 2025-yilga kelib 0,75 ga koʻtarilgan boʻlib, 0,09 ballik sezilarli oʻsishni koʻrsatmoqda. Bu holat tumanda ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishi, kichik biznes subyektlarining rivojlanishi va korporativ boshqaruv elementlarini amaliyotga tatbiq etish bilan bogʻliq. Lekin Chust tumani Namangan shahridan keyingi oʻrinda turib, indeksi biroz pastroq darajada qolmoqda.

Pop tumani koʻrsatkichlari ham yaxshi dinamikaga ega boʻlib, 2020-yilda 0,63 dan 2025-yilda 0,73 ga yetgan. Bunda umumiy oʻsish 0,10 ballni tashkil etgan. Ushbu tuman iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va korporativ boshqaruv standartlarining bosqichma-bosqich joriy etilishi bu oʻsishga ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

Kosonsoy tumani raqobatbardoshlik indeksi 2020-yilda 0,60 dan boshlanib, 2025-yilga kelib 0,70 ballga yetgan. Ushbu 0,10 ballik oʻsish tumanning umumiy rivojlanish tendensiyasiga ijobiy baho beradi. Biroq indeksi boshqa tumanlarga qaraganda pastroq ekanligi sababli, korporativ boshqaruv mexanizmlarini va ishlab chiqarish samaradorligini yanada rivojlantirish zarurligini koʻrsatadi.

Eng past koʻrsatkich Yangiqoʻrgʻon tumanida qayd etilgan boʻlib, indeks 2020-yilda 0,58 dan 2025-yilga kelib 0,67 ga yetgan. 0,09 ballik oʻsish ijobiy holat boʻlsa-da, indeksning nisbatan past boʻlishi ushbu hududda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va ayniqsa korporativ boshqaruv standartlarini keng joriy qilish zarurligini taʼkidlaydi.

Namangan viloyatidagi barcha tumanlarda raqobatbardoshlik indeksi oʻsib bormoqda. Ammo viloyat markazi va rivojlangan tumanlar bilan iqtisodiy jihatdan pastroq rivojlangan tumanlar orasida sezilarli farqlar mavjud. Shu sababli, Kosonsoy va Yangiqoʻrgʻon kabi tumanlarda korporativ boshqaruv tizimlarini rivojlantirish, iqtisodiy faoliyat turlarini diversifikatsiya qilish va investitsiya jalb qilish boʻyicha qoʻshimcha choralar koʻrish zarur. Bu esa hududlarning umumiy iqtisodiy samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini yanada oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot asosida quyidagi ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi:

Namangan viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi 2020–2025-yillar oraligʻida barcha tumanlarda barqaror oʻsdi. Namangan shahri, Chust va Pop tumanlarida ishlab chiqarish hajmining sezilarli oshishi iqtisodiy rivojlanish va samarali boshqaruv mexanizmlarining mavjudligini koʻrsatadi. Ammo Kosonsoy va Yangiqoʻrgʻon

tumanlarida bu ko'rsatkichlar pastroq bo'lib, iqtisodiy faoliyat va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish zarurligini anglatadi.

Bandlik darajasi sanoat sektori bilan parallel ravishda o'sib borayotgan bo'lib, Namangan shahri va Chust tumanida yuqori bandlik ko'rsatkichlari qayd etilgan. Biroq Yangiqo'rg'on va Kosonsoy tumanlarida bandlik darajasi pastroq bo'lib, ushbu hududlarda yangi ish o'rinlarini yaratish uchun iqtisodiy va boshqaruv siyosatlarini takomillashtirish zarur.

Korporativ boshqaruv elementlarini joriy qilish darajasi Namangan shahri va Chust tumanida yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu esa korxonalarining samaradorligi va raqobatbardoshlik darajasini oshirmoqda. Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlarida bu jarayon sekinroq amalga oshmoqda va boshqaruv tizimlarini rivojlantirish uchun qo'shimcha strategik choralarni ishlab chiqish zarurligini bildiradi.

Raqobatbardoshlik indeksi bo'yicha Namangan shahri yetakchi bo'lib, bu korporativ boshqaruv tizimlarining samaradorligi bilan bog'liq. Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlaridagi past ko'rsatkichlar esa ushbu hududlarda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish, boshqaruv sifatini oshirish va iqtisodiy faoliyat turlarini diversifikatsiya qilish zarur ekanligini ko'rsatmoqda.

Kosonsoy va Yangiqo'rg'on tumanlarida korporativ boshqaruv mexanizmlarini kengroq joriy qilish, xususan, ichki audit, shaffoflik va steykholderlar bilan samarali muloqot tizimlarini rivojlantirish zarur. Bu esa iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirib, raqobatbardoshlikni kuchaytiradi.

Viloyatning barcha tumanlarida ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va sanoat sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish uchun maxsus investitsion dasturlar va imtiyozlar ishlab chiqilishi kerak. Bu chora tadbirkorlik faolligini oshirib, iqtisodiy rivojlanishga turtki bo'ladi.

Bandlik darajasi past bo'lgan tumanlarda xizmat ko'rsatish, kichik va o'rta biznes hamda hunarmandchilikni qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni kengaytirish zarur. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlar uchun yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan loyihalar amalga oshirilishi tavsiya etiladi.

Tumanlararo iqtisodiy rivojlanish farqlarini kamaytirish uchun viloyat markazidan uzoq bo'lgan tumanlarga qo'shimcha investitsiyalar jalb qilish, transport va logistika infratuzilmasini yaxshilash hamda korxonalar uchun subsidiyalar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish talab etiladi.

Korxonalarda menejment va mulkdorlar orasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish hamda xalqaro korporativ boshqaruv standartlarini joriy etish bo'yicha amaliy choralar ko'rish zarur.

Ushbu taklif va tavsiyalarining amalga oshirilishi Namangan viloyatining iqtisodiy rivojlanishi, hududiy iqtisodiy muvozanat va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD. Principles of Corporate Governance. Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2015.

2. Tricker, Bob. *Corporate Governance: Principles, Policies and Practices*. Oxford University Press, 2019.
3. Shleifer, A. and Vishny, R. W. "A Survey of Corporate Governance." *The Journal of Finance*, Vol. 52, No. 2, 1997, pp. 737–783.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevral PQ–6019-son qarori. "Korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"..
5. IMF. *Corporate Governance and Economic Performance*. International Monetary Fund Working Paper WP/21/38, 2021.
6. OECD. *Principles of Corporate Governance*. Paris: OECD Publishing, 2015.
7. Tricker, Bob. *Corporate Governance: Principles, Policies and Practices*. Oxford University Press, 2019.
8. Shleifer, Andrei, and Vishny, Robert W. "A Survey of Corporate Governance." *The Journal of Finance*, Vol. 52, No. 2, 1997.
9. Becht, Marco; Bolton, Patrick; Röell, Ailsa. *Corporate Governance and Control*. ECGI Working Paper, 2002.
10. International Monetary Fund. *Corporate Governance and Economic Performance*. IMF Working Paper WP/21/38, 2021.
11. Krugman, Paul & Obstfeld, Maurice. *International Economics: Theory and Policy*. Pearson Education, 10th Edition, 2015.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 4-fevral PQ–6019-son. "Korporativ boshqaruv tizimini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi Qarori .
13. Abdullayev B., Yusupov Sh. *Markaziy Osiyo mamlakatlarida korporativ boshqaruv tizimlari: muammolar va istiqbollari*. Toshkent: Iqtisodiyot va ta’lim, 2022.
14. Lee, Dae-Hoon. *Corporate Governance in East Asia: Trends and Challenges*. Seoul: Korean Institute of Governance Studies, 2020.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir: Xakimov Ziyodulla Axmadovich
Ingliz tili muharriri: Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich
Rus tili muharriri: Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li
Musahhah: Karimova Shirin Zoxid qizi
Sahifalovchi va dizaynerlar: Sadikov Shoxrux Shuxratovich
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: info@marketingjournal.uz
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**